



## MAKTABGACHA TA'LIM TARIXI

Ismoilova Muslima

*Denov tadbirkorlik pedagogika instituti maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich 5-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimining tarixi, ilk bolalar bog'chasining paydo bo'lishi, kimlar bu yo'lda hissa qo'shganliklari, maktabgacha ta'lim sohasining rivojlanishi keng targ'ib etilgan.

**Kalit so'zlar:** Fridrix Frebel, Maktabgacha ta'lim instituti, mayda matorika , didaktik o'yinlar maktabgacha tarbiya nazariyasi.

Nizom: O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaroriga muvofiq Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tizimi tarmoqlarini kengaytirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellectual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart sharoitlar yaratish ko'ga tutilgan.

XIX-asrning ikkinchi yarmi XX-asrda Shvetsariya Angliya va boshqa Yevropa mamlakatlarida nemis pedogogi Fridrix Frebelning maktabgacha tarbiya nazariyasi keng ommolashdi. U ilk bor "bolalar bog'chasi" tushunchasini muomalaga kiritdi.

Fridrix Frebel (1782-1852) Fridrix Frebelning pedagogik tizimi.

Bolalar bog'chasining paydo bo'lish tarixi 1837-yilda borib taqaladi, bolalar bog'chasining asachisi deb taniqli nemis pedogogi Fridrix Frebel hisoblanadi. Aynan u Germaniyaning Bad-Blankenberq shaxrida bolalar uchun tashkil qilingan muassasasini "bolalar bog'chasi" deb atadi va ushbu atama butun dunyoda umumiy tarzda qabul qilindi. F.Frebelning katta xizmati bolalar bog'chasining ochilishi , shuning dek maktabgacha ta'lim uslubiyotining yaratilishi bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki aynan Frebel didaktik o'yilar tizimini yaratishga asas slogan. Olim olib brogan ishlar unda shunday e'tiqodni shakllantirdiki, "bolalar o'yini-bu turmish ko'gusi va ichki olamning erkin namoyishi"dir.

F.Frebel mayda motorika yordamida bolalar nutqini rivojlantirishni taklif qilgan. Xilma-xil bolalar faoliyati turlari va mashg'ulotlarni taklif etgan; bular: mazaika , munchoqlar, cho'plar qog'ozlar , bo'yoqlar bilan ishlash, rasm chizish, qog'ozdan to'qish , qog'ozni qirqish, loydan narsalar yasash. Origamiga katta e'tibor qaratilgan. Olim jamoaviy tarbiyani insoniyat asosi deb bilgan.

Maktabgacha ta'lim sohasi vujudga kelishida 1918-yilda Fridrix Frebel kursi qoshida Petrograd Maktabgacha ta'lim institutining tashkil etilishi muhim voqea bo'ldi. Bu ta'lim maskanida Maktabgacha ta'lim bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlangan, shu bilan bir qatorda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. 1919-yilda xalq maorifi komissariyati tomonidan "maktabgacha ta'lim" bo'yicha butun ittifoq anjumani bo'lib o'tdi. Bunda ijtimoiy Maktabgacha ta'lim sohasini tashkil etish, bola tarbiyasining nazariy-amaliy masalalari o'rin oladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini 2017-2021-yillarda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-27.07 sonli qarori.

2.Maktabgacha pedagogika F.R Qodirova, Sh.Q. Toshpo'latova, N.M.Kayumava, M.N.Azamova. "Tafakkur" nashriyoti Toshkent 2019

3.W.W.W Ziyonet

4.W.W.W pedagog.uz